

ENRICHMENT OF THE LITERARY LANGUAGE LEXICON WITH DIALECT WORDS: EXPERIMENTS, PROPOSALS

Abdumannon Majidovich KHASANOV

DSc, Senior Research Fellow,
Institute of the Uzbek Language, Literature and Folklore
The Academy of Sciences of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ADABIY TIL LEKSIKASINING SHEVA SO'ZLARI BILAN BOYITILISHI: TAJRIBALAR, TAKLIFLAR

Abdumannon Majidovich HASANOV

DSc, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
O'z FA
Toshkent, O'zbekiston

ОБОГАЩЕНИЕ ЛЕКСИКОНА ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА ДИАЛЕКТНЫМИ СЛОВАМИ: ЭКСПЕРИМЕНТЫ, ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Абдуманнон Маджидович ХАСАНОВ

DSc, Старший научный сотрудник,
Институт узбекского языка, литературы и фольклора АН Узбекистана
Ташкент, Узбекистан abdumannonhasanov3137@gmail.com
<https://orcid.org/0000-0002-8656-0521>

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для
цитирования):**

Hasanov A.M. Adabiy til leksikasining sheva
so'zlari bilan boyitilishi: tajribalar, takliflar //
O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild,
№ 3. — B. 65-83.

<https://doi.org/10.36078/1751444749>

Received: April 01, 2025

Accepted: June 17, 2025

Published: June 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article discusses the possibilities of dialect words to enrich the literary language lexicon. As is known, every nation in the world creates its own history, culture and development. Ensuring the development and progress of its native language, which serves to distinguish it from other nations and to realize its identity, is one of the most important and primary tasks of this nation. After all, the creation, preservation and development of the language, culture, traditions and values that indicate the uniqueness and uniqueness of a particular nation depend on the national activity of this nation. Having realized this from the lessons of history, the Uzbek people are also trying to keep their culture, in particular their language, as pure as possible, and to develop it in harmony with the development of thought and culture. This encourages us - the owners of this language - to be vigilant, vigilant, and active in preserving linguistic nationality. The article briefly describes the national linguistic experiments on this issue and gives opinions on their effectiveness. It also presents the results of observations on the study of dialects in the last century, the creation of an explanatory dictionary and the reflection of dialect words in it. The processes of acceptance of dialect words into the lexicon of the literary language and its linguistic aspects are explained on the basis of lexicographic experiments. Information is also provided about the work aimed at these issues in recent years. It is based on the fact that work in this area today serves the purity and perfection of the language. It also reveals the linguistic possibilities of some words used in dialects today and that can replenish the lexicon of the literary language.

Keywords: language lexicon; lexical gap; dialect words; unnamed concept; linguistic need; literaryization; literary norm.

Annotatsiya. Bu maqolada sheva soʻzlarining adabiy til leksikasini boyitish imkoniyatlari haqida mulohazalar bildirilgan. Maʼlumki, jahondagi har bir xalq oʻz tarixi, madaniyati va taraqqiyotini oʻz qoʻli bilan bunyod etadi. Oʻzga millatdan farqlanib turishiga va oʻzligini anglashga xizmat qiluvchi ona tilining rivojlanishi va taraqqiyotini taʼminlash ham shu xalqning eng muhim va birlamchi vazifalaridan biridir. Zero, muayyan xalqning betakrorligini, oʻziga xosligini koʻrsatuvchi til, madaniyat, urf-odat va qadriyatlarining yaratilishi, saqlanishi, rivojlanishi shu xalqning umummilliy faoliyatiga bogʻliq. Tarix saboqlaridan shu narsani anglab yetgan oʻzbek xalqi ham oʻz madaniyatini, xususan, tilini imkon qadar sof saqlashga, tafakkur va madaniyat rivojiga hamohang ravishda rivojlantirishga harakat qilmoqda. Bu esa bizni — shu til egalarini sergaklikka, hushyorlikka, til milliyligini saqlashda faollikka undaydi. Maqolada mazkur masalada milliy tilshunoslik tajribalari haqida qisqacha tavsif berilgan va ularning natijadorligi haqida fikrlar aytilgan. Shuningdek, oʻtgan asrda shevalarning oʻrganilishi, izohli lugʻatning yaratilishi va unda sheva soʻzlarining aks etishi boʻyicha kuzatish natijalari bayon etilgan. Sheva soʻzlarining adabiy til leksikasiga qabul qilinish jarayonlari va uning lingvistik jihatlari lugʻatchilik tajribalari asosida izohlangan. Soʻnggi yillarda mazkur masalalarga qaratilgan ishlar haqida ham maʼlumot berilgan. Mazkur jabhadagi ishlar bugungi kunda til sofliги va mukammalligi uchun xizmat qilishi asoslangan. Shuningdek, bugungi kunda shevalarda qoʻllanayotgan va adabiy til leksikasini toʻldirishi mumkin boʻlgan ayrim soʻzlarning lingvistik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: til leksikasi; leksik boʻshliq; sheva soʻzlari; nomsiz tushuncha; lisoniy ehtiyoj; adabiylashtirish; adabiy meʼyor.

Аннотация. В статье рассматриваются возможности диалектных слов по обогащению лексики литературного языка. Как известно, каждый народ мира строит свою историю, культуру и развитие. Обеспечение развития и прогресса родного языка, служащего его отличию от других народов и осознанию его самобытности, является одной из важнейших и первоочередных задач этого народа. Ведь создание, сохранение и развитие языка, культуры, традиций и ценностей, характеризующих уникальность и самобытность конкретного народа, зависят от общегосударственной деятельности этого народа. В статье дается краткое описание отечественных лингвистических экспериментов по этой проблеме и комментируется их эффективность. Описываются также результаты наблюдений по изучению диалектов в прошлом веке, создание толкового словаря и отражение в нем диалектных слов. На основе лексикографических экспериментов объясняются процессы внедрения диалектных слов в лексику литературного языка и их лингвистические аспекты. Также была предоставлена информация о работе, проделанной по этим вопросам в последние годы. Автор исходит из того, что работа на этом фронте сегодня служит чистоте и совершенству языка. Раскрываются также лингвистические возможности некоторых слов, употребляемых в современных диалектах и способных дополнить лексику литературного языка.

Ключевые слова: лексикон языка; лексическая лакуна; диалектные слова; неименованный концепт; языковая потребность; литературизация; литературная норма.

Kirish

Dunyo tilshunosligi tajribalarini kuzatib, shu narsaga amin bo'lish mumkinki, tillar orasidagi aloqa va aralashuv natijasida nisbatan "kambag'al"roq bo'lgan til o'zga til(lar)dan muayyan lisoniy birliklarni o'zlashtiradi. Agar tilning o'zi ancha mukammal va to'kis bo'lsa, unga boshqa til unsurlarining suqilib kirishi cheklanadi. Ayni shu qonuniyat ko'pgina tilshunoslar tomonidan ham tan olinadi. Shu qonuniyatga asosan dunyo tilshunoslari o'z tillarini imkon qadar ichki imkoniyatlar asosida takomillashtirishga intilmoqda.

O'zbek tilshunosligida ham bu boradagi ishlar ancha salmoqli. Xususan, milliy tilshunosligimiz tilning ichki imkoniyatlari va ularning ahamiyatiga ming yillar oldin diqqat qarata boshlagan. Chunonchi, M. Koshg'ariy turkiy tilning ko'plab shevalarini sinchiklab o'rgangan, shevaga xos so'zlarning ma'noviy xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilgan. O'rni bilan ayrim so'zlarning umumtil darajasida ahamiyatli birlik ekanligini e'tirof etgan. Bir so'z bilan aytganda, alloma tomonidan tuzilgan lug'at tilning ichki imkoniyatlari, xususan, xalq shevalarini o'rganishga qaratilgan ilk va muhim manba hisoblanadi.

Til leksikasining ichki imkoniyatlari tavsiflangan yana bir muhim manba Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn" asaridir. Mutafakkir bu asarida turkiy til leksikasining fors tiliga qaraganda boyroq ekanligini faktik materiallar orqali ko'rsatib beradi [Navoiy 2012: 515–519]. Xususan, kichik ma'noviy farqqa ega bo'lgan ko'plab fe'llarning semantikasini tahlil qilar ekan, turkiy tilning leksik imkoniyatlari bisyorligini e'tirof etadi. Ayni xususiyatlar orqali turkiy til hatto yondosh (fors-tojik) tildagi leksik bo'shliqlarni to'ldirishga ham qodir ekanligini ko'rsatib beradi. Shuningdek, ijodkor o'z asarlari orqali turkiy (o'zbek) tilning ifoda imkoniyatlari hech qaysi tilnikidan kam emasligini isbotlab berdi.

XX asr o'zbek tilshunosligida til leksikasini tizimli tahlil qilish va uning boyish jarayonlarini ilmiy jihatdan tavsiflashda salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Xususan, asr boshida yetuk tilshunos Abdurauf Fitrat til leksikasini ichki imkoniyatlar asosida boyitish kerakligiga jiddiy e'tibor qaratdi. XX asrning ikkinchi choragida hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanish jarayonlarida ham ko'pgina ziyolilarimiz: Botu, Ashurali Zohiriy, Qayum Ramazon, Miyon Buzruk, Shokirjon Rahimiy, G'ozi Olim, Shorasul Zunnun kabilar til leksikasini ichki imkoniyatlar asosida boyitishga jiddiy e'tibor qaratishdi. Ayniqsa, 1929-yilda Samarqandda o'tkazilgan Til islohoti va imlo konferensiyasida o'zbek adabiy tilining lug'at boyligini ichki imkoniyatlar asosida shakllantirish haqidagi muhim yondashuvlar bu davrda yashagan ko'plab tilshunoslarning mushtarak maslagi bo'lganligini alohida ta'kidlash zarur.

XX asrning ikkinchi yarmida til ichki imkoniyatlari, xususan, xalq shevalarini o'rganishga jiddiy ahamiyat qaratildi. O'rganilgan va to'plangan materiallar asosida o'zbek adabiy tilining leksik me'yorlarini belgilashga harakat qilindi. Bu harakatlarning katta natijasi sifatida 1981-yilda ikki jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" nashr etildi.

Til ichki imkoniyatlari voqelanishining boshqa bir ko'rinishi so'z

yasash usullaridan unumli foydalanish ham bu boradagi ishlarning ancha sarmahsul bo'lishiga xizmat qildi. O'zbek tilining so'z yasash tizimini chuqur o'rgangan A. Hojiyev til leksikasining boyitilishida ichki imkoniyatlarga tayanish lozimligiga alohida diqqat qaratdi. Olim tomonidan o'zbek tili leksikasining sovet davridagi o'zgarishlari tahlil qilinib, lug'at boyligi mukammallashuvida ichki imkoniyatlarning, xususan, shevaga xos so'zlarning adabiy til leksikasini boyitishdagi ahamiyati va miqyosi ko'rsatib berildi [Hojiyev 1991: 188].

O'zbek tilshunosligida muayyan davrdagi til leksikasi o'zgarishlari va unda ichki imkoniyatlardan foydalanish jarayonlari tahliliga bag'ishlangan ishlar kam emas. Mazkur masala yuzasidan Fitrat, V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Kamol, B. Jo'rayev, F. Abdullayev, X. Doniyorov, A. Hojiyev, A. Ishayev, R. Jomonov, N. Murodova kabi olimlar tomonidan salmoqli fikrlar bildirilgan. Bu tarzda ishlar so'nggi paytlarda ham paydo bo'lmoqda. Biroq sheva so'zlarini sinchiklab o'rganish va ular orasidan adabiy til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirishga munosib so'zlarni tavsiya qilish borasidagi tadqiqotlarning natijadorligi u qadar qanoatlanarli emas.

Adabiyotlar tahlili. Til leksikasidagi bo'shliqlarni sheva so'zlari bilan to'ldirish borasidagi qarashlar ming yillik tarixga ega. Bu borada milliy tilshunosligimiz muhim, yetarli va maqtanarli manbalarga ega. So'nggi vaqtlarda ham tilning bu muhim ichki imkoniyatiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, so'nggi yuz yillikda o'zbek shevalarining leksik xususiyatlari Y. D. Polivanov, G'. O. Yunusov, K. K. Yudaxin, A. K. Borovkov, V. V. Reshetov, Sh. Afzalov, H. G'ulomov, T. Mirsoatov, Y. Aliyev, S. Ibrohimov, I. Farmonov, O'. Sharipov, N. G'afurova, I. Shamsiddinov, H. Uzoqov, S. Zufarov, T. Yo'ldoshev, H. Sharipov, T. Sodiqov, T. Qudratov, B. Jo'rayev, M. Mirzayev, V. Egamov, O. To'raqulov, E. Sheraliyev, A. Ishayev, N. Rajabov, F. Abdullayev, E. O'rozov, Sh. Nosirov, X. Jo'rayev, Q. Muhammadjonov, S. Raximov, R. Jomonov, Y. Ibragimov, A. Shixiyev, N. Shoimova, R. Yo'ldoshev, M. Begaliyev, B. To'ychiboyev, Q. Qashqirli, S. G'aybullayev, A. Allaberdiyev, Sh. Norbayeva kabi tadqiqotchilar tomonidan tizimli o'rganildi. Mazkur tadqiqotlarning aksariyatida sheva so'zlarini adabiy tilga qabul qilish, ommalashtirish borasida o'rni bilan taklif va tavsiyalar berilgan. Ayniqsa, Fitrat, V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, B. Jo'rayev, F. Abdullayev, X. Doniyorov, A. Hojiyev, A. Ishayev, R. Jomonov, N. Murodova kabi olimlarning ishlarida dialektal so'zlarning adabiy til leksikasini boyitish imkoniyatlari haqida salmoqli fikrlar bildirilgan. Bu boradagi eng so'nggi tadqiqotlarda til leksikasidagi bo'shliqlarni shevaga xos so'zlar bilan to'ldirish haqida o'rinli va jo'yali takliflar berilmoqda. Aynan til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirish imkoniyatiga ega bo'lgan shevaga xos so'zlar haqida fikr yuritilgan quyidagi tadqiqotlar ham muayyan lingvistik masalalarni hal qilish nuqtayi nazaridan ahamiyatli.

F. Musayevaning "Lakuna hodisasi va uni bartaraf etishda sheva leksikasining ahamiyati" nomli maqolasida sheva so'zlarining adabiy til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirish imkoniyatlari tahlil qilingan [Musayeva 2020: 97]. Tadqiqotchi o'zbek shevalarining maishiy va urf-odatlar bilan bog'liq ko'pgina so'zlarini adabiy til uchun ahamiyatli deb

baholaydi. Biroq mazkur ish maqola bo'lgani bois unda qo'yilgan masalaning mufassal yechimlari ko'rsatilmagan. F. Musayevaning "O'zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi" nomli monografiyasida ham sheva so'zlarining adabiy tildagi lakuna (bo'shliq – A. H.)larni to'ldirishi haqidagi fikr va tavsiyalar mavjud.

Adabiy til leksikasidagi bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan ishlardan yana biri S. Po'latovanning "Hozirgi o'zbek adabiy me'yoridagi lakunalar (Vobkent tumani misolida)" nomli maqolasidir. Unda tadqiqotchi kichik hudud shevasining adabiy tildagi leksik lakuna (bo'shliq – A. H.)larni to'ldirish imkoniyatlari borasida bahs yuritadi [Po'latova 2021: 6]. Muallif bo'shliqni to'ldirishga munosib dialektal so'zlarni: 1) kundalik turmushda ishlatiladigan so'zlar; 2) kiyim nomlari; 3) inson tana a'zolari nomlari; 4) marosim bilan bog'liq nomlar sifatida tasniflaydi. Mazkur maqola kichik hajmli va tor ko'lamli bo'lsa-da, lakunar birliklarni mavzuiy guruhlariga tasniflash jihatidan ahamiyatlidir.

Bizning "O'zbek adabiy tilidagi leksik lakunalarning dialektal asoslari" nomli dissertatsiyamizda ham til leksikasini sheva so'zlari bilan boyitish masalasiga diqqat qaratilgan. Mazkur ishda adabiy til va shevalar leksikasining qiyosi asosida ko'pgina leksik lakunalarni aniqlash mumkinligi, shuningdek, ularni to'ldirishda tegishli lakunar birliklardan foydalanishning ahamiyatli jihatlari haqida mulohazalar berilgan. Adabiy tilning boyitilishida xalq shevalarining imkoniyatlarini tavsiflashga harakat qilingan ushbu tadqiqotda qishloq xo'jaligi va maishiy leksikaga oid, shuningdek, insonga xos xususiyatlar, harakatlar va munosabatlarni ifodalovchi ayrim dialektal so'zlarni adabiyashtirish borasida taklif va tavsiyalar ham berilgan [Hasanov 2021: 5]. Biroq unda muayyan leksik semantik guruhlar doirasida kuzatishlar olib borilganligi sabab shevalarga xos bo'lgan barcha so'zlar qamrab olinmagan.

So'nggi yillarda milliy tilshunosligimizda til leksikasidagi bo'shliqlarning to'ldirilishida tilning ichki imkoniyatlaridan, xususan, dialektal resurslardan foydalanish borasidagi yondashuvlar tilning umumiy rivojlanish qonuniyatlariga hamohang tarzda shakllangan va bu holat tegishli davr tilining leksikografik tavsiflarida ham o'z aksini topgan. Leksik tizimdagi bunday o'zgarishlar lug'atchilik orqali o'z ifodasini topayotganini O'TILning turli nashrlarini taqqoslash orqali ham dalillash mumkin. Masalan, izohli lug'atning besh jildli (2006–2008) nashrida tavsiflangan shevaga xos so'zlar miqdori O'TILning ikki jildli nashridagi miqdordan ancha ortganligi kuzatiladi (bizning hisob-kitobimiz bo'yicha keyingi (2006–2008) nashrdagi O'TILda 1177 ta shevaga xos so'z qayd etilgan; mazkur miqdor oldingi nashrdagidan 1,6 barobar ko'proq). Shuningdek, izohli lug'atning 2022-yildagi nashrida ham mazkur miqdor sezilarli darajada ortgan. Bu holatlar ko'rsatadiki, til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirishda shevalar imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali til sofliğini va aslligini saqlab qolish borasidagi sa'y-harakatlar maqtashga arzigulik. Shu tarzda yondashuvlar davomiyligini saqlab qolish uchun esa tilning ichki imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga, yangi taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga ehtiyoj mavjud.

Nazariy asos va metodlar. Til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirishda shevaga xos so'zlardan foydalanish ham katta ijtimoiy-lisoniy o'ringa ega. Muayyan tushunchaning nomi yo'q deb qaralar ekan, uning

nomini topish uchun shu tushuncha bilan ish ko'ruvchi hududlar aholisining lug'at boyligini kuzatish orqali bu masalaga munosib yechim topish mumkin. Professor N. Mahmudovning "Tilimizning tilla sandig'i" nomli kitobida shunday voqea tasvirlangan: "Taomshunos olim, marhum Karim Mahmudov xotiralaridan birida shunday voqeani hikoya qilgan edi: Olim bir taomning tayyorlanish tartibini yozib, zukko so'z sinchisi Abdulla Qahhorga ko'rsatadi. Undagi *ikra* so'zini ko'rgan yozuvchi: "Buning o'zbekchasi yo'qmi?" — deb so'raydi. Olim: "Baliqning urug'i desa bo'ladi" — deydi. So'zning ich-u tashini baravar ko'ra oladigan adib: "Nima, sizga baliq o'simlikmi?" — deydi achchiqlanib. "Bo'lmasa, baliqning tuxumi bo'lsin", — deb javob beradi olim izlangan bo'lib. Yozuvchi: "Baliq tovuq emas", — deydi va xalqda alohida so'z borligini aytadi..." [Mahmudov 2012: 77]. Shundan so'ng taomshunos olim bu tushunchaning xalq shevalarida qanday ifodalanishiga qiziqib qoladi. Keyinroq Xorazmga qilgan bir safarida bu tushunchaning *uvuldiriq* tarzida nomlanishini bilib oladi.

Aslida ham, har bir tushuncha qaysi hudud va jamoada muayyan ahamiyatga ega bo'lsa, shu jamoa nutqida (shevasida) nomlangan bo'ladi. Ya'ni "ma'lum bir territoriyada mavjud bo'lgan tushunchaning adabiy tilda bir so'zga teng atamasi bo'lmaydi. Shevada esa uni atovchi alohida dialektal so'z bor" [Abdurahmonov 1981: 25]. Bunday holatda tegishli dialektal so'z progressiv dialektizm deb baholanadi va uning adabiy tildagi tegishli bo'shliqni to'ldirish imkoniyatlari e'tirof etiladi.

Til leksikasidagi lakunarlikning asosiy sababi ham shu: qaysiki tushuncha jamoa a'zolarining kundalik turmushida, faoliyatida zaruriy ahamiyatga ega bo'lsa, shu jamoa tilida (shevasida) u nomlangan bo'ladi. Aksincha holatlarda bu tushuncha lakunar birlik sifatida yashayveradi.

"Umuman, adabiy tilning dialektal va so'zlashuv tili leksikasi hisobiga boyish protsessi nuqtayi nazaridan dialektal va so'zlashuv tiliga oid so'zlarni quyidagi uch qatlamga ajratish mumkin: 1) dialektlarga va so'zlashuv tiligagina xos bo'lib qoladigan so'zlar (masalan, *innaykin*, (adabiy tilda *undan keyin*), *ja* (adabiy tilda *juda*)); 2) adabiy tilga o'tish protsessidagi so'zlar; 3) adabiy tilga o'tgan so'zlar" [O'TILni tuzish uchun qo'llanma 1964: 11]. Mazkur tasnifdagi birinchi toifa so'zlar adabiylashishga loyiq emas. Uchinchi toifa esa adabiylashib bo'lgan so'zlar. Demak, shu ikki toifaning o'rtasidagi oraliq ikkinchi toifa, ya'ni adabiy tilga o'tish jarayonidagi (o'tishi mumkin bo'lgan) so'zlarni adabiy til leksikasi uchun ahamiyatli birlik sifatida baholash mumkin. Biroq ularning adabiylashish ehtimoli va imkoniyatlarini asoslash talab etiladi.

Natijalar va tavsiyalar. Xalq shevalari va ularning lisoniy imkoniyatlarini o'rganish tilning taraqqiyot maromini to'g'ri tartibga solish va tizimlashtirishga imkon beradi. Buning uchun turli hududlardagi aholining kundalik nutqi, faoliyati, qiziqishlari, dunyoqarashi yetarlicha o'rganilishi kerak. "Jamiyat hayoti va uning turmush sharoitini o'rganish va bilish so'z va terminlarning paydo bo'lishini aniqlashda, so'zlarning ma'no xususiyatlarini belgilashda g'oyat muhim ahamiyatga ega" [HO'AT 1966: 104]. Zero, har bir so'z o'z sohibining dunyoqarashi, lisoniy kommunikativ ehtiyojlari natijasida shakllanadi.

Ayrim olimlarning ta'kidlashicha, dialektlarda olamning lisoniy manzarasi umummilliy lisoniy manzaradan farqlanadi. Antroposentrik

tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan olamning lisoniy manzarasi "borliq haqidagi ijtimoiy (shuningdek, muayyan guruh, individual) ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi jami"ni ifodalaydi [Mahmudov 2017: 138]. Mazkur tushuncha sheva vakillari dunyoqarashining tarkibiy qismi sifatida ularning kognitiv va lisoniy faoliyatida ham muayyan salmoqqa ega. Ya'ni "sheva vakillari atrofdagi olamni o'z lisoniy jamoasida qabul qilingan qoliplarga asosan idrok etadi" [Musayeva 2019: 113]. Shuning natijasi o'laroq, borliqdagi narsa va hodisalarni nomlashda muayyan shevaga xos olamning lisoniy manzarasi akslanadi. Masalan, foyda tushunchasini Xorazm shevasida *yuqum* [O'XShL 1971: 136] deb atalishi bu tushunchaning biror ish-faoliyat yoki vaziyat (holat)dan olingan *yuq* tarzida idrok etilishidan yuzaga kelgan. Lekin keng qamrovli kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, shevalarda so'z yasaliishi va muayyan tushunchani nomlash borasidagi lisoniy iroda adabiy tildagi mavjud lisoniy an'analardan butkul farqlanmaydi. To'g'rirog'i, adabiy tilda shakllanadigan so'z yasaliish tizimi va boshqa lingvistik tajribalar, aslida, adabiy tilning negizini tashkil etuvchi lahja va shevalardan olinadi (ko'chiriladi). Bu esa adabiy tilning tabiiy va xalqchil bo'lishi uchun ham juda zarur.

Adabiy tilning ta'siri natijasida dialektlarda shevaga xos so'zlar kamayib boradi, ammo bu ta'sir shevaga xos so'zlarning adabiy tilga qabul qilinish jarayonlarini butkul to'xtata olmaydi. Shuningdek, dialektlar umumxalq tilining ajralmas qismi sifatida adabiy til leksikasidagi bo'shliqlarning to'ldirilishida o'z ahamiyatini saqlab qolaveradi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, dialektologiya adabiy tilning shakllanishi va boyishi jarayonlarida dialektlarning imkoniyatlarini tadqiq etishda eng muhim va eskirmas soha sifatida tilshunoslik fanining asosiy bo'limlaridan biri bo'lib qolaveradi. Zero, "har qanday adabiy tilning taraqqiyoti, boyishi, stabillashuvi shu tilning dialektografik va dialektologik masalalarining naqadar hal qilinganligiga hamda adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabatning, birinchisining ikkinchisiga ta'sir doirasining, bir-biriga yaqinlashuv va tekislasha boruv protsessining qay darajada ekanligi bilan taqozo qilinadi" [Jo'rayev 2002: 15].

"Dialektlarga oid so'zlarning dialektizm ekanligi, odatda, adabiy tildagi yoki boshqa sheva, dialektlardagi so'zlarga qiyoslangan holdagina aniqlanadi" [Ishayev 1990: 131]. Shuningdek, shevaga xos so'zlarni, asosan, O'TILdagi so'zlar bilan qiyoslash orqali ularning adabiy tilga qabul qilish imkoniyatlarini baholash mumkin. Zero, izohli lug'at lug'atning eng muhim va asosiy turi sifatida zarur leksik birliklarning adabiy tilda mavjudligi yoki yo'qligi haqida yetarlicha ma'lumot beradi [Gak 1977: 12].

O'zbek tilining o'ziga xos geografik o'rni va aholisining etnik (shevaviy) xususiyatlari ham uning turli hududlaridagi o'ziga xos yashash sharoitlari, urf-odatlar, dialektal xususiyatlarining bir-biridan farqlanishini yuzaga keltiradi. Bu tafovutlar qanchalik o'ziga xos va xilma-xil bo'lmasin, tarixiy ildizi bir bo'lgan jamoaning mushtarak madaniyati, urf-odatlar va dunyoqarashi, turmush tarzi bilan bir umumiylik va yaxlitlik kasb etadi [Usmanova 2011: 117]. Shuningdek, biror dialektga uchraydigan kamyob urf-odat ham kamida shu dialektga yondosh hududlar uchun tanish hisoblanadi.

O'zbek adabiy tilining leksik me'yorlarini belgilashda, asosan, butun o'lka miqyosida tushunarli va ahamiyatli bo'lgan so'zlarga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, kundalik turmushda zarur bo'ladigan barcha tushunchalarning o'z ifodachisiga ega bo'lishi uchun shevaga xos so'zlarga ham murojaat qilinadi. Shevalarning adabiy tilni to'ldirish imkoniyatlari milliy tilshunosligimizda juda qadimdan anglab yetilgan va bugungi kunda ham mazkur imkoniyatlardan foydalanilmoqda. Quyida biz xuddi shu imkoniyat orqali adabiy til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirishga xizmat qiluvchi ayrim shevaga xos so'zlarni tavsiflashga harakat qilamiz.

Bog'dorchilikda mevalarni isrof bo'lmasligiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Xususan, uzumchilikda savat yoki boshqa idishlarga joylangan uzumning shingil (bosh)idan ajralib tushib qolgan donalari ham alohida yig'ib boriladi va mavsum yakunida ulardan shinni tayyorlanadi. Ayni shu jarayonda "shingilidan ajralib qolgan uzum donalari" ko'pgina qarluq shevalarida *g'ujala* deb nomlanadi. Bizningcha, bu so'z ham uzumchilikka oid muhim atama sifatida adabiy til leksikasidan joy olishi mumkin. Bu orqali tegishli nomsiz tushuncha o'z ifodachisiga ega bo'ladi.

Ayrim qarluq shevalarida "daraxtning to'g'ri (tekis) o'sgan shoxi" *zilon* (O'XSHL, 111) deb nomlanadi. Daraxt shoxlarini qisqartirish (butash, shakl berish) jarayonlarida bunday shoxni kesmaslikka, nobud qilmaslikka alohida e'tibor qaratiladi. To u ishlatishga yaroqli bo'lguniga qadar shu tarzda asraladi. Bu tekis novda yog'och bo'lib yetilgach, undan ketmon, belkurak, chalg'i kabi ish qurollariga dasta tayyorlash mumkin. Shu bois *zilon* qishloq mehnatkashlari uchun juda zarur ashyolardan hisoblanadi. Bu esa uni tegishli shevalarda alohida nomlanishiga sabab bo'lgan. Bizningcha, bu ahamiyatli so'z adabiy tilda o'z nomi bo'lmagan tegishli tushunchaning ifodachisi sifatida adabiy tilda barqarorlashishi mumkin.

Ayrim qipchoq shevalarida "pishmay qovjiragan meva" *sarvuzak* so'zi orqali ifodalanadi. Mazkur tushuncha ham adabiy tilda o'z ifodachisiga ega emas. Bugungi kunda iqlimning ancha isishi va boshqa ekologik muammolar natijasida bog'dorchilikda ham yangi tushunchalar va ularning nomi paydo bo'lmoqda. Yuqoridagi kabi ko'p uchraydigan ayrim tushunchalarning nomi hisoblanuvchi yangi birliklarni adabiy til leksikasida ommalashtirish va shu orqali tegishli leksik bo'shliqlarni to'ldirish foydadan xoli emas.

Sut mahsulotlarining har biri o'zbek tilida alohida nomlangan. Ayniqsa, shevalarda sut mahsulotlarining juda detallashtirib nomlanganini kuzatish mumkin. Masalan, *suzma* so'ziga ma'nosi yaqin *chakki* atamasi "yog'i ajratib olingan va suv (zardob)sizlantirilgan (xaltaga solib suvi sizdirilgan) sut mahsuloti"ni nomlaydi. Ma'lumki, *suzma* atamasi yog'li (yog'i kuvida ajratilmagan) sut mahsulotining nomi hisoblanadi. Bu kabi farqli tushunchalarni atashga xizmat qiluvchi so'zlarni albatta O'TILga kiritish kerak, nazarimizda.

Baxmal tumani qarluq lahjasiga oid shevalarda (masalan, Madaniyat qishlog'i shevasida) "to'y-ma'rakalarga mahalla ahlini chaqirish (aytish) uchun belgilangan kishi" *aytuvchi* [Hasanov 2022: 17] so'zi orqali ifodalanadi. Bu so'zning aytmoq 4 "taklif etmoq, chaqirmoq" so'zi bilan aloqadorligini ilg'ash qiyin emas. Mazkur tushunchani atash uchun *jarchi*,

baqiruvchi, jamoatchi kabi birliklarni safarbar qilish mumkin. Biroq ular *aytuvchi* kabi keng tushunishli va ommabop emas. Bu esa mazkur soʻzga tegishli tushunchaning mos nomlovchisi sifatida qarashga imkon beradi.

Milliy oʻyinlarimizdan biri uloq baʼzi toʻylarda uyushtiriladigan muhim musobaqa sifatida katta ahamiyatga ega. Ayrim toʻylarda, asosan, bolalarning sunnat toʻylarida milliy qadriyatimiz namunasi boʻlgan uloq oʻyini uyushtiriladi. Toʻy bilan bogʻliq bu musobaqada uloqchi chavandozlar bilan bir qatorda uloq oʻyinlariga qiziquvchi tomoshabinlar va mehmonlar ancha koʻp kelishi kuzatiladi. Shu bois toʻy beruvchi mehmonlarni bir kun avval qabul qiladi va ularni qoʻni-qoʻshnilarinikiga joylashtiradi. Biroq mehmonni siylash bilan bogʻliq xarajatlar toʻy egasining zimmasida boʻladi: ziyofat uchun kerakli masalliqalar toʻyxonadan tarqatiladi. Qoʻni-qoʻshni mezbonlar esa mehmonlarni kutib, ularga xizmat qiladi. Shu jarayonda toʻy egasi tomonidan beriladigan toʻy masalliqalari sheva vakillari nutqida *qoʻniq* deb ataladi. *Qoʻnoq* kabi bu soʻzning ham *qoʻnmoq* feʼli bilan aloqadorligini sezish qiyin emas. Bu kabi keng tushunishli va milliy qadriyatlarimiz bilan bogʻliq atamalarni adabiy til lugʻatlariga albatta kiritish joiz. Chunki til madaniyatning koʻzgusi sifatida jamiyatning urf-odatlarini ham oʻzida mujassamlashtirishi lozim.

Shevalardagi soʻzlarning oʻziga xosligi shu sheva ahli yashaydigan hududning geografik, ijtimoiy, tarixiy va madaniy xususiyatlariga bogʻliq. Xususan, hududning geografik tuzilishi bu yerda istiqomat qiluvchi kishilar nutqida tegishli atamalar shakllanishiga sabab boʻladi. Togʻli hududlarda yashovchi sheva vakillari nutqida qoʻllanuvchi *chagʻat* soʻzi “togʻ yoki qirning tosh va qum bilan qoplangan yona qismi”ni atashga xizmat qiladi. Koʻpchilik uchun tanish bu kabi tabiat bilan bogʻliq soʻzlar adabiy til leksikasida mavjud boʻlishi lozim, bizningcha.

Qishloq xoʻjaligida tez oʻsadigan joʻxori kabi oʻsimliklarning ekilishi, pishmasdan (meva tugmasidan) yigʻib olinishi va chorva mollariga koʻk (hoʻl) oʻt (ayrim qarluq shevalarida bu tushuncha *koʻgal* deb nomlangan) sifatida berilishi ancha ommalashgan. Bu tarzda yemish yetishtirish chorva mollarini toʻygʻazish, xususan, sogʻiladigan sigirlar sutini koʻpaytirishda muhim omil boʻlib xizmat qilmoqda. Ayni holatdagi “chorva mollari uchun ekilgan, meva tugmasdan (hosil bermasidan) oldin oʻrib olinadigan ekin” maʼnosidagi *gʻavish* soʻzi qipchoq shevalarida uchraydi. Bizningcha, adabiy til leksikasida ifodalanmagan bu tushuncha nomini ham adabiylashtirish mumkin.

Xalq shevalaridagi ravish turkumiga xos ayrim soʻzlar adabiy til leksikasidagi tegishli boʻshliqni toʻldirish xususiyatiga ega. Xususan, *bugunasiga* [OʻXSHL 1971: 57] soʻzi “oʻsha kunning ertasiga, keyingi kuni” maʼnosiga ega. Bizningcha, bu soʻz *bu kunisiga* birikmasining leksikalizatsiyasidan shakllangan va oʻzi ifodalaydigan tushunchaning munosib nomi sifatida adabiylashtirilishi mumkin. Xuddi shu kabi *oʻkaz* [OʻXSHL 1971: 204] soʻzi ham payt ravishiga mansub soʻzlardan biri. “U kuni, oʻtgan kunlarning birida” maʼnosiga ega boʻlgan bu soʻz ham adabiy til uchun ahamiyatli birlik hisoblanadi.

Odamlar guruhining betartibliigi ayrim qarluq va oʻgʻuz shevalarida *toʻpor* [Allaberdiev 2018: 215] soʻzi bilan nomlangan. Bu soʻz asosidan yasalgan *toʻpori* soʻzi esa soʻzlashuvda ancha ommalashgan va OʻTILning

so'nggi nashriga kiritilgan. Bizningcha, *to'por* so'zi ham tegishli tushunchaning munosib nomlovchisi sifatida adabiy lashtirilishi mumkin. Zero, u yangi yasalmalar hosil qilishda ham qatnashayotgan birlik sifatida muayyan foydali jihatlarga ega.

Inson xarakteri shundayki, u o'zi qiziqqan narsani o'rganishga, oxiriga yetishga intiladi. Masalan, kishi biror kitobga qiziqib qoldimi, ko'zi toliqsa-da, vaqtini yo'qotsa-da, uni o'qib chiqishga harakat qiladi. Qipchoq shevalarida qo'llanuvchi *sungimoq* so'zi ayni shu holatni, ya'ni "biror narsaga berilib ketmoq, diqqati va xayolini faqat shu narsaga yo'naltirmoq" ma'nolarini ifodalaydi. Bizningcha, adabiy tilda bu tushunchaning leksemalashishiga ham ehtiyoj bor. Bu esa *sungimoq* so'zining adabiy lashuviga imtiyoz beradi.

Qurilishda eshik, deraza uchun qoldiriladigan o'rin devorning bino qurilishining keyingi bosqichlari uchun juda asqatadi: eshik yoki deraza o'rnatishda ustalarning devorni qaytadan buzishiga ehtiyoj bo'lmaydi. Devorning mazkur qismi tepasiga qalin va mustahkam yog'och (yoki metall shveller) "ko'prik" shaklida qo'yiladi. Chunki eshik yoki deraza o'rnidan yuqorida devor (g'isht) terish yana davom ettiriladi. Ayni vaziyatda qo'llanuvchi qalin va mustahkam yog'och qarluq shevalarida *sandar* deb nomlanadi. *To'sin, strapila, xari* kabi so'zlar qatorida bu so'z ham quruvchilikka oid atama sifatida tilda ommalashishga haqli.

Qarluq shevalarida uchraydigan *keskanosh* so'zi "oqqa (suzmaga) qatilgan ugra" ma'nosida qo'llanadi. Adabiy til lug'atlarida mazkur xushxo'r va ommabop taom nomlanmaganligi *keskanosh* so'zining ommalashuvini va tegishli tushuncha nomi sifatida adabiy lashuvini taqozo etadi.

Ko'pgina shevalarda "doim tirjayib turadigan, ko'p kuladigan" ma'nosida qo'llanuvchi *yirjiq* [Allaberdiyev 2018: 184] so'zi ham adabiy til leksikasi uchun muhim birlik sanaladi. Chunki *irjaymoq* so'zi bilan aloqadorlik bu yangi so'zning tez tushunilishiga imkon beradi. Bizningcha, bu so'zni *irjiq* tarzida ommalashtirish mumkin.

Xalq shevalarida muayyan farqqa ega bo'lgan tushunchalarning bir-biridan alohidalanib nomlanishi ham o'ziga xos dialektal lisoniy idrokning mukammalligidan dalolat beradi. Chunonchi, turli shevalarda qon so'ruvchi mayda chivin turlarini nomlovchi *alaqanot* [Muhammadjonov 1981: 72], *xomishak* [Jo'rayev 1981: 134] *chirkay* [Allaberdiyev 2018: 220] kabi so'zlar mavjudki, bu so'zlar chivinning har xil turlarini alohida-alohida nomlashga qodir. Chunonchi, *xomishak* so'zi chorva mollari atrofida aylanib yuradigan chivinni nomlasa, *alaqanot* balchiq va yashnab turgan o'simliklar yaqinida uchraydigan chivinni nomlashga ixtisoslashgan. *Chirkay* so'zi esa chirigan meva-cheva va sabzavotlar atrofida aylanib yuradigan chivinni nomlaydi. Bizningcha, bu kabi tegishli farqlanuvchi tushunchalarni nomlashga qodir so'zlar ham adabiy til leksikasida o'z o'rnini topishi kerak.

Aksar qarluq shevalarida qo'llanadigan *hashakalla* so'zi "baribir, o'ylamasdan, dabdurustdan; har qanday holatda ham" ma'nosiga ega. *Akam maktabdan keldi, hashakalla velosipedini o'rtog'iga berib yubordi* kabi gaplarda bu so'zning qo'llanish xususiyatlarini yaxshiroq anglash mumkin. Bu so'zning *shoshilinch, ataylab, bilmasdan* kabi so'zlardan jiddiy farqlanishini izohdan ham sezish mumkin. Bu kabi

soʻzlar ravish turkumi imkoniyatlarini reallashtirishga ham muayyan darajada xizmat qiladi.

Xalq shevalari inson tana aʼzolarini nomlovchi soʻzlarga boyligi bilan ham muayyan lingvistik imkoniyatlarga ega. Xususan, burun teshigini nomlovchi *tanav*, tilning uch qismini nomlovchi *koʻmakay*, qoʻlning tirsakdan yelkagacha boʻlgan qismini nomlovchi *qari*, odamning bosh tepasidagi soch aylanasi nomlovchi *oʻral* soʻzlari ham adabiy tilda oʻz nomiga ega boʻlmagan tushunchalarning ifodachilari hisoblanadi. Bu atamalar tegishli tushunchalarni nomlashda odam va uning salomatligi, odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanlari uchun ham muayyan ahamiyat kasb etadi.

Chuvachoq soʻzi qipchoq shevalarida “nimjon va kuchsiz, ammo oʻzini kuchli hisoblovchi” maʼnosida qoʻllanadi. Bu soʻzga maʼnosi yaqin boʻlgan *kuchsiz*, *manman* soʻzlari mazkur tushunchani ifodalay olmaydi. Chunki *chuvachoq* soʻzida “oʻzini kuchli hisoblash” semasi mavjud. Ayni shu jihat bu soʻzni yondosh tushunchalardan farqlab turadi. Bizningcha, adabiy tilda munosib ifodachisi boʻlmagan mazkur tushuncha *chuvachoq* soʻzi bilan nomlanishi lozim.

Qipchoq shevalarida uchraydigan *chuvarak* soʻzi oʻz donalaridan ayrilgan uzum boshi (yoki shingili) — dumchasini atashga xizmat qiladi. Mazkur tushunchaning *dumcha* yoki *poʻchoq* tarzida nomlanishi unchalik toʻgʻri emas: chunki uzum boshi (yoki shingili)ning daraxtsimon, koʻrinishda boʻlishi *dumcha* yoki *poʻchoq* deb nomlanuvchi tushunchalardan ancha farqlanishini koʻrsatadi. Bu farqlanish albatta uning nomida ham aks etishi lozim.

Yogʻingarchilik mavsumining surunkaliligini, davomiyligini ifodalashda ayrim togʻli hudud shevalarida *shirshirak* soʻzi qoʻllanadi. Bu soʻzning *shir-shir* (yomgʻirning yogʻish holatiga taqlid) asosidan yasalganligi sheva ahlining soʻz yasash imkoniyatlarining adabiy tildagi soʻz yasash imkoniyatlari bilan hamohangligini koʻrsatadi. Bizningcha, bu kabi yasalmalar ham adabiy til leksikasidagi boʻshliqlarni toʻldirishda muayyan imkoniyatlarga ega.

Ish qurollari orasida yogʻoch (ustun) poʻstlogʻini archishga va silliqlashga xizmat qiluvchi yoysimon anjom bor. Bu anjom ayrim qarluq shevalarida *qirgʻi* deb nomlangan. Ayrim shevalarda esa uni *los* deb atashadi. Bizningcha, *qirgʻi* soʻzi ushbu anjomni atashda imtiyozliroq. Chunki bu soʻz *qirmoq* asosidan yasalgan va ayni xususiyat uning tushunishli boʻlishiga va adabiylashuviga imkoniyat tugʻdiradi.

Ayrim yeguliklarning choʻgʻ (olov) taftida toblab pishirilishi koʻpchilikka maʼlum. Biroq yegulikni pishirishda foydalaniladigan choʻgʻ (olov) tafti qanday nomlanishi koʻpchilikka maʼlum emas. Bu tushuncha turk-kaltatoy shevalarida *hil* deb nomlangan. Uning *alanga*, *yolqin*, *qoʻr* kabi soʻzlardan ayro maʼnoga egaligini tavsiflashga ehtiyoj boʻlmasa kerak. Bizningcha, bu soʻz ham adabiy til leksikasidagi tegishli boʻshliqni toʻldira oladi.

Koʻpgina suyuq moddalarning yuzasida muayyan vaqt mobaynida “qaymoq” — sirt chegarasi hosil boʻladi. Fizikada sirt tarangligi tushunchasini yuzaga keltiruvchi bu hodisa suyuqlikning ochiq atmosfera bilan taʼsirlashuvi va chegaralanishida paydo boʻladi. Bu kabi odatiy, ammo muayyan fahm-idrokni talab etuvchi hodisalar ham oʻzbek xalq

shevalarida nomlangan. Ayni shu tushuncha qipchoq shevalarida *qayaz* deb nomlangan. Bizningcha, bu soʻz ham tegishli tushunchaning nomi sifatida lingvistik ahamiyatga ega.

Sholcha, olacha, gilam kabi toʻqiladigan toʻshamalarning chetiga shunday hoshiya (jiyak) tikiladiki, u toʻshamalardagi arqoq va oʻrishlarning sitalib (eshilib) ketmasligiga xizmat qiladi. Bu gilam hoshiyasi ayrim qipchoq shevalarida *chiraz* deb nomlangan. Bugungi kunda zamonaviy toʻquv dastgohlarida ishlab chiqarilayotgan gilamlarda ham mazkur vazifani bajarishga xoslangan hoshiyalarni uchratish mumkin. Bu esa muhim va zaruriy tushunchani nomlovchi *chiraz* soʻzining adabiylashuviga imtiyoz beradi.

Shevalarda kishilarning fazilat va illatlariga koʻra nomlovchi soʻzlar ancha faol qoʻllanadi. F. Musayevaning taʼkidlashicha, “sheva vakillari voqelikning salbiy jihatlariga koʻproq diqqat qilib, aynan ularni nomlashga eʼtibor qaratishadi” [Musayeva 2019: 48]. Kishiga oʻzganing biror xususiyati yoqmas ekan, u buni ifodalashda salbiy boʻyoqdor soʻzlarni qoʻllashga intiladi. Bu esa mazkur tipli soʻzlarning qoʻshimcha subyektiv maʼno olishini talab etadi. Ana shu omil sabab shaxsga xos xususiyatlarni ifodalovchi soʻzlar semantikasida salbiy munosabat mavjud boʻlgan soʻzlarning miqdori ijobiy boʻyoqqa ega boʻlgan soʻzlardan ancha koʻp ekanligini qayd etish joiz. Xususan, koʻpgina harakatlari va qiliqlari beoʻxshov bolalar qipchoq va ayrim qarluq shevalarida *xiyol* sifati bilan tavsiflanadi. Ayni soʻz ham bugungi soʻzlashuvda faollashayotgan soʻzlardan biri. Bizningcha, bu soʻz *xayol* soʻzining semantik oʻzgarishi asosida “xayol suruvchi, hardamxayol” tushunchalariga ixtisoslashuvi natijasida maydonga kelgan (va fonetik oʻzgarishga uchragan: a > i). Bu birlik bugungi kunda oʻgʻuz lahjasi vakillari nutqida ham uchraydi. Bu esa mazkur soʻzning ancha ommalashganligi va tegishli lisoniy ehtiyojga monandligini koʻrsatadi. Bizningcha, bu soʻzni ham turli manbalarda qoʻllash orqali ommalashtirish zarar qilmaydi.

Oʻzbek tilida *qarz* soʻzi olinadigan va beriladigan qarzni ifoda etadi. Ularning farqlanmaganligi adabiy til leksikasi uchun oʻziga xos boʻshliqni yuzaga keltiradi. Ayrim shevalarda bu boʻshliq toʻldirilgan, yaʼni tegishli tushunchalar *bergi*, *olgʻi* kabi soʻzlar bilan nomlangan. Bizningcha, bu birliklar adabiy tildagi tegishli leksik boʻshliqning toʻldirilishida muayyan ahamiyatga ega. Chunonchi, qarzdorning “boʻyni”dagi qarzni *bergi* deb nomlash mumkin.

Qir-adirli hududlarda chorva mollarini oʻtlatishning turli usullari bor. Shulardan biri molni oʻtloqqa arqonlab qoʻyishdir. Bunda mol arqon uzunligiga mutanosib maydondagi oʻt-oʻlanlar bilan oziqlanishi kundek ravshan. Mazkur joydagi oʻt-oʻlanlar tozalab yeyilgach, chorvador (choʻpon) molni boshqa joyga arqonlaydi, yaʼni arqon qozigʻini jildiradi. Ushbu jarayon ayrim qipchoq shevalarida *jildirim* deb nomlangan. *Jildirmoq* feʼli asosidan affiksatsiya usulida yasalgan bu soʻz til egalariga oson tushunilishi bilan muayyan ahamiyatga ega. Bizningcha, tegishli jarayonni nomlovchi va qishloq hududlarida faol qoʻllanuvchi bu soʻzni adabiy til lugʻatlariga kiritish lozim.

Milliy urf-odatlarimizga koʻra, aksar hududlarda kuyov va uning oʻrtoqlariga toʻy oldidan ziyofat beriladi va unda birin-ketin toʻqqiz xil ovqat dasturxonga tortiladi. Ushbu ziyofat Qashqadaryo, Surxondaryo

tomonlarda *qaynatataboq* [Xolmanova 2022: 98] tarzida nomlangan. Jizzax, Samarqand vohalarida esa bu ziyofat *to'qqiztavoq* deb ataladi. Kuyovning ishtahali ekanligi, ovqatni yetarli miqdorda iste'mol qilishi kabilarni sinash maqsadini nazarda tutuvchi mazkur qadimiy odat bugungi kunda ham yo'qolib ketmagan (xalqimizda turli ovqatlarni yeya (hazm qila) olish, yetarli miqdorda ovqat yeyish yigitlarning ijobiy xususiyati sanalishi ko'pchilikka ma'lum; "*Ovqatni ye bo'ridek, yumushni qil cho'ridek*", "*temirni ham yamlab hazm qiladigan*" kabi lingvomadaniy birliklarning mavjudligi ham fikrimizni tasdiqlaydi). Bizningcha, aksariyat hududlar uchun tanish bu udum nomi sifatida *to'qqiztavoq* so'zini adabiy til lug'atlariga kiritish joiz.

Til egalarining yangi so'z yaratishida ularning tasavvur va taxayyul tarzi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, cho'ntakka solib yuriladigan kichkina oyna (ko'zgu) Qashqadaryoning langar shevasida *tuyako'z* [Xolmanova 2022: 132] tarzida nomlangan. Oynachaning doira shaklida ekanligi va kichikligi uni mazkur so'z bilan nomlanishiga asos bo'lgan. Qolaversa, *qo'l oynasi* yoki *cho'ntak oyna* tarzida so'z birikmasi bilan ifodalashdan qochilganligi ham shu so'zning yaralishiga sabab bo'lgan, deyish mumkin. Bu kabi oqilona lisoniy topqirlik bilan yasalgan so'zlarni adabiy tilda ommalashtirish foydali. Zero, bu kabi tushunchalar adabiy til leksikasida nomlanmaganligi uchun sheva vakillari tomonidan nomlangan bo'ladi.

Chorvadorlar o'z molini imkon qadar yaxshi narxga sotishga tirishadi. Ayni shu jarayonda xaridorga ko'maklashuvchi dallol mol narxini ataylab past baholashga va shu yo'l bilan narxni tushirishga intiladi. Mazkur harakat ko'pgina shevalarda *pachakilamoq* [Xolmanova 2022: 92] so'zi bilan ifodalanadi. Umuman, xaridorning olinayotgan tovar narxini past baholashga harakat qilishini ham ifodalovchi bu so'zni adabiy til leksikasiga kiritish joiz.

Ba'zan kishilarning kuchli shovqinli joyda yoki uzoqdagi kishilarni chaqirish, ogohlantirish uchun lab, tish va qo'l uchi yordamida hushtak chalib, kuchli ovoz chiqarishini ko'pchilik yaxshi biladi. Bu tarzda kishilar diqqatini tortish zarur va favqulodda holatlarda yaxshi ish berishi ham hech kimga sir emas. Mazkur usulda hushtak chalish (kuchli ovoz chiqarish) Qashqadaryodagi ayrim shevalarda *ishqiriq* [Xolmanova 2022: 51] tarzida nomlangan. *Ishqirmoq* fe'li va *-iq* qo'shimchasining so'z yasash imkoniyatlaridan xabardor kishi bu so'zning qanday ma'no anglatishini ham osongina ilg'ay oladi. Bizningcha, ko'pchilikka oson tushuniladigan bu so'zni ham adabiy til lug'atlariga kiritish joiz. Zero, u ko'pchilikka ma'lum bo'lgan tushunchani nomlashga xizmat qiladi.

Baxmal tumani Madaniyat qishloq shevasida qo'ying katta dumbali turlari *ketmonquyruq* so'zi orqali obrazli tarzida sifatlanadi. Bunday qo'ylarning quyrug'i (katta) ketmon yuzasi kabi keng o'lchamli bo'lishi chorvadorlarning shu so'zni qo'llashlariga sabab bo'lgan. Bizningcha, bu so'zni ham adabiy til lug'atlariga kiritish foydadan xoli emas. Zero, ko'pchilik tushunadigan *ketmonquyruq* kabi so'zlar azaldan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan xalqimiz uchun muayyan nutqiy imkoniyatlar to'kislashuviga xizmat qiladi.

Ayrim shevalarda suyuq taom va mahsulotlarning achib, irib qolganligini ifodalashda *irgimchik* [Xolmanova 2022: 50] so'zi

qo'llanadi. *Irimoq* fe'li asosidan yasalgan bu so'z, asosan, sut-qatiq mahsulotlariga nisbatan istifoda etiladi. *Irgimchik* so'zining aynan sut mahsulotlariga nisbatan qo'llanishi uni *chirik* so'zidan farqlab turadi. *Irgamchik* so'zi esa ushbu so'zga paronim bo'lsa-da, boshqa ma'noni, ya'ni "kishini jirkantiradigan; yirgamchik, jirkanch" (O'TIL, II, 539) ma'nosini anglatadi. Bu esa *irgimchik* so'zining farqli va atovchisiz tushunchaning nomi sifatida adabiy til me'yoriy lug'atlariga kiritilishiga zamin tayyorlaydi.

Ko'pgina qipchoq shevalarida "eskirgan; kasallangan; ish bermaydigan" ma'nosi *charchov* so'zi orqali istifoda etiladi. Tegishli ma'noni qisqa tarzda va harakat nomi shaklida ifodalashdan shakllangan bu so'z hozirda ayni ko'rinishda tegishli shevalarda dialektal norma darajasiga ko'tarilgan. *Charchamoq* fe'lidan yasalgan *charchoq* so'zi esa, odatda, ot ma'nosida qo'llanishi hammaga ma'lum. Bu esa mazkur so'zning *charchov* ifodalagan tushunchaga mos emasligini ko'rsatadi. Umuman, biror narsa-predmetning tegishli holatini aniq-tiniq va yaxlit ifodalash xususiyatiga ega bo'lgan *charchov* so'zi ham adabiy tildagi tegishli bo'shliqni to'ldirishga xizmat qilishi mumkin.

Quvur, ariq kabi suv yo'llarining umumiy sathga nisbatan botiq qismini ifodalash uchun ayrim shevalarda *halqob* so'zi qo'llanadi. ***Halqobda qolib ketgan suv qishda muzlab quvurni yorib yuboribdi; Halqobdan o'tgan ariq limmo-lim oqmoqda*** kabi jumalalarda bu so'zning ma'noviy xususiyatlari yanada ravshan anglanadi. Bizningcha, tegishli tushunchaning adabiy tilda boshqa nomlovchisi yo'q. Shu bois mazkur tushunchani ifodalashga *halqob* so'zini safarbar qilish foydali.

Arpapoyalik so'zi ayrim hududlarda "chapani, barvasta; intiluvchan" ma'nosidagi birlik sifatida qo'llanadi. Yosh navqiron yigitlarni tavsiflashga xizmat qiluvchi bu so'z ham til ichki imkoniyatlari mahsuli sifatda til leksikasini boyitishga xizmat qiladigan so'zlardan biridir. ***Yosh, arpapoyalik yigit shaharga kelgach o'z ishini va o'z o'rnini topdi*** kabi jumalalarda bu so'zning ma'nosini yaxshiroq ilg'ash mumkin. Bizningcha, bu kabi noyob so'zlar ham adabiy til lug'atlariga kiritilishi va izohlanishi lozim. Zero, izohli lug'at til egalarining noyob va kamyob, ayni damda muhim va betakror so'zlarini ham o'zida mujassamlashtirishi kerak.

Ko'pgina shevalarda uchraydigan *tikkalay* so'zi ham adabiy tildagi tegishli bo'shliqni to'ldirishga loyiq so'zlardan. U "tik tarzda, tikka holatda" ma'nosiga ega bo'lgan ravish hisoblanadi. Sifat turkumidagi *tikka* so'zidan hosil bo'lgan bu birlik faqat ravish ma'nosida qo'llanadi. Ushbu holatda *-lay* qo'shimchasining vazifasi yorqin akslanishini sezish mumkin. ***Bola o'zini tikkalay suvga tashladi; yoki Ishchi tomdan tikkalay tushib ketibdi*** kabi jumalar orqali bu so'zning qanday holatlarni ifodalashini tasavvur qilish mumkin. *Tikka tarzda* yoki *tik holatda* kabi nutqiy birliklar o'rnida yaxlit qo'llana olishi mazkur so'zning leksemalashuviga imtiyoz beradi.

Saxiylik insonning ijobiy fazilatlaridan biri. Ammo saxiylikda ham muayyan me'yorlarga amal qilish joiz. "O'zi ehtiyojmand bo'la turib, so'ralgan narsani o'zgaga berib yuborish xususiyati"ni ifodalovchi ***kengqo'llik*** so'zi ayrim qarluq shevalarida faol qo'llanadi. Bizningcha, bu so'z ***keng fe'l, qo'li ochiq*** kabi iboralarga o'xshash va ularga xos ma'noni ifodalash ehtiyojidan shakllangan. Mazkur so'z anglatgan tushunchaning

adabiy til leksikasida nomlanmaganligi uning adabiylashuviga imtiyoz beradi.

Ko'pgina shevalarda *botish* so'zi "to'g'ri keladigan, bir-biriga "kiyishadigan", yarashmay qolmaydigan" ma'nosi bilan faol qo'llanadi. Bu so'z, odatda, ikki narsaning (masalan, kiyimning) bir-biriga uyg'un bo'lishi, o'zaro birikkanda notabiiylik (ko'rimsizlik) kasb etmasligini tavsiflashga xizmat qiladi. Ayni jihatlar uning *uyg'un*, *o'xshash* so'zlaridan farqli ekanligini ko'rsatadi.

Shu so'z asosida yasalgan *botishmoq* fe'li ham shevalarda faol qo'llanadi. U "botish bo'lmoq (ko'rimsiz bo'lib qolmaslik)" ma'nosiga ega. Ushbu ikki so'zning *bot* asosidan yasalganligini sezish mumkin. Biroq *botish* so'zidagi *-ish* affiksining fe'ldan sifat yasash xususiyatlari hozirgi o'zbek tilida me'yoriy holat emas. Shuningdek, *botishmoq* so'zining morfem tarkibini tavsiflash ham ancha mushkul. Biroq *-ish* — fe'lning o'zlik darajasi shaklini hosil qiluvchi affiks deb yondashilsa [G'ulomov 1977: 420], mazkur qo'shimchaning *botish* so'zi tarkibida qotib qolganligini taxmin qilish mumkin (xuddi shu kabi ayrim shevalarda *burish* so'zi ham (*-iq* qo'shimchasisiz) sifat turkumidagi so'z sifatida qo'llanadi). Bizningcha, *botish* va *botishmoq* so'zlarini izohli lug'atlarda qayd etish tegishli tushunchalarni nutq jarayonlarida aniq va to'g'ri ifodalash imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

Ayrim qarluq shevalarida qo'llanadigan *bosqilamoq* so'zi "aziz, mo'tabar narsa, joy, kishi (va b.)ga hurmat ko'rsatmasdan, uning ustidan (yonidan) o'tish" ma'nosiga ega. *Mozoratda yursang, yo'lakdan yur – qabrlarni bosqilama!* yoki *Bu ko'chada birinchi uy – bizning uy, bizni bosqilab ukamnikiga o'tib ketibsiz* kabi gaplarda ushbu so'zning qanday ma'noda qo'llanayotganini yaxshiroq anglash mumkin.

-qi qo'shimchasining jarangsiz undosh bilan tugagan fe'lga qo'shilib ot yasashi ma'lum [G'ulomov 1977: 446]. *Bosqilamoq* so'zidagi *-qi* affiksi ham, aslida, shu qo'shimchaning o'zi. Faqat bu qo'shimcha bilan yasalgan *bosqi* so'zi bugungi kunda deyarli qo'llanmaydi. Undan yasalgan *bosqilamoq* so'zi esa shevalarda uchraydi. Umuman, bu so'z o'zi ifodalagan tushunchaga juda mos va shu bois ham uni adabiy tilning me'yoriy lug'atlariga kiritish mumkin.

Fizika fanidan barchaga ma'lumki, istalgan jism biror zarb ta'siridagina harakatlanishi mumkin. Farg'ona shevalarida qo'llanuvchi *zingimoq* [Xolmanova 2022: 146] so'zi qattiq urilgan chillakning uzoq masofaga tez uchib ketishini ifodalaydi. Bizningcha, bu so'zni "kuchli zarb ta'sirida tez uchib ketmoq" ma'nosida adabiy til leksikasiga kiritish mumkin. Bu orqali tegishli tushunchaning nomlanishiga va shevalarda faol qo'llanuvchi bir so'zning adabiylashuviga imkoniyat yaratiladi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlil qilingan shevaga xos so'zlar dialektal leksikaning adabiy til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirish imkoniyatlari haqida muayyan tasavvur bera oladi. Bu kabi birliklarni shevalardan izlab topish, ularning adabiy til leksikasi uchun ahamiyatli jihatlarini ilmiy asoslash va shu orqali adabiylashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish til sofliги va xalqchilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning barobarida, milliy

tilimizning asl manbalari, xususiyatlari, imkoniyatlari haqidagi qarashlar mukammallashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lugʻatayn / Toʻla asarlar toʻplami, 10-jild. — T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2012. — 684 b.
- Hasanov Majid. Dilda borim. — T.: Bookmany print, 2022. — 168 b.
- Norbayeva Sh. Xorazm shevalari leksikasining onomasiologik tadqiqi: Filol.f.dok.diss. — T., 2024. — 270 b.
- Poʻlatova S. Hozirgi oʻzbek adabiy meʼyoridagi lakunalar (Vobkent tumani misolida) // Soʻz sanʼati. — 2021. — №1, IV jild. — B. 6–10.
- Xolmanova Z., Nasriyeva D. Oʻzbek shevalaridagi lakunar birliklar lugʻati. — T.: Bookmany print, 2022. — 168 b.
- Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. — Т.: Фан, 1981. — 60 б.
- Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси: Филол.ф.б.ф.д (PhD) дисс. — Т., 2018. — 239 б.
- Гак В. О. О некоторых закономерностях развития лексикографии (учебная и общая лексикография в истерическом аспекте) // Актуальные проблемы учебной лексикографии. — М., 1977. — С. 10–16.
- Ғуломов А., Тихонов Н., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. — Т.: Ўқитувчи, 1977. — 420 б.
- Жомонов Р. Ўзбек тилининг изоҳли луғати учун диалектизмлардан сўз танлаш принциплари ва уларнинг берилиши: Филол. фанлари номзоди... дисс. — Т., 1991. — 203 б.
- Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва ўзбек диалектлари. — Т.: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони сурх” бирлашган нашриёти, 1963. — 46 б.
- Жўраев Х. Ўзбек тили турк-калтатой шевасининг фонетик ва лексик хусусиятлари (Самарқанд, Жиззах, Сирдарё областлари материаллари асосида). — Т.: Фан, 1981. — 144 б.
- Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. — Т.: Фан, 1990. — 140 б.
- Махмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. — Т.: “Mumtoz soʻz”, 2017. — 178 б.
- Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. — 152 б.
- Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. — Т.: Фан, 2002. — 156 б.
- Мусаева Ф. Лакуна ҳодисаси ва уни бартараф этишда шева лексикасининг аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. — 2020. — № 3. — Б. 97.
- Мусаева Ф. Оламнинг диалектал лисоний манзараси // Ўзбек тили ва адабиёти. — 2018. — № 4. — Б. 105.
- Мусаева Ф. Ўзбек шеваларида метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. — 2019. — №4. — Б. 113.
- Мусаева Ф. Ўзбек шеваларининг лингвомаданий тадқиқи. — Т.: Фан, 2019. — 120 б.
- Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари (қарлуқ ва кипчоқ тип материаллари асосида). — Т., 1981. — 179 б.

- Решетов В.В. Кураминские говоры Ташкентской области (фонетическая, морфологическая система): Автореф. дисс...д-ра филол. наук. — Т., 1951. — 20 с.
- Ўзбек тилининг изохли луғатини тузиш учун қўлланма. — Т.: Фан, 1964. — 84 б.
- Ўзбек халқ шевалари луғати (масъул муҳаррир Ш.Шоабдурахмонов). — Т.: Фан, 1971. — 408 б.
- Усманова Ш. Олтой тилларидаги муштарак маиший лексика тадқиқи: Филол. фанлари докт... дис. — Т., 2011. — 324 б.
- Фитрат. Тилимиз / Танланган асарлар. IV жилд. — Т.: Маънавият, 2006. — Б.128–131.
- Ҳасанов А. Ўзбек адабий тилидаги лексик лакуналарнинг диалектал асослари: Филол.ф.б.ф.д (PhD) дисс. автореф. — Т., 2021. — 55 б.
- Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III томлик. 3-том (сўз ясаши ва лексика). — Т.: Фан, 1991. — 188 б.
- Ҳозирги ўзбек адабий тили. I том (Фонетика. Лексикология. Морфология). — Т.: Фан, 1966. — 392 б.
- Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. — Т.: ЎзФА, 1962. — 372 б.

References

- Abdurahmonov, X., & Mahmudov, N. (1981). *Soʻz estetikasi* (The Aesthetics of the Word). Tashkent: Fan.
- Allaberdiyev, A. (2018). *Bukhara oʻgʻuz shevalari leksikasi* (PhD dissertatsiyasi) (The Lexicon of Bukhara Oghuz Dialects (Candidates's thesis)). Tashkent.
- Fitrat. (2006). *Tilimiz* (Our Language). In *Tanlangan asarlar* (Selected Works) (Vol. 4, pp. 128–131). Ma'naviyat.
- Gak, V. O. (1977). *O nekotorykh zakonomernostyakh razvitiya leksikografii (uchebnaya i obshchaya leksikografiya v istoricheskom aspekte)* (Some Patterns of Lexicography Development (Educational and General Lexicography in Historical Aspect)). *Aktualnye problemy uchebnoy leksikografii* (Topical Issues of Educational Lexicography), 10–16. Moscow.
- Gʻulomov, A., Tikhonov, N., & Qoʻngʻurov, R. (1977). *Oʻzbek tili morfem lugʻati* (Morpheme Dictionary of the Uzbek Language). Tashkent: Oʻqituvchi.
- Hasanov, M. (2022). *Dilda borim* (All I Have Is in the Heart). Tashkent: Bookmany Print.
- Hasanov, A. (2021). *Oʻzbek adabiy tilidagi leksik lakunalarining dialektal asoslari* (PhD dissertatsiyasi, avtoreferat) (Dialectal Basis of Lexical Lacunae in Uzbek Literary Language (Extended abstract of candidate's thesis)). Tashkent.
- Hojiyev, A. (1991). *Sovet davrida oʻzbek adabiy tilining taraqqiyoti. III tomlik. 3-tom (soʻz yasalihi va leksika)* (Development of Uzbek Literary Language During the Soviet Period. Vol. 3 (Word Formation and Vocabulary)). Tashkent: Fan.

- Holmanova, Z., & Nasriyeva, D. (2022). *O'zbek shevalaridagi lakunar birliklar lug'ati* (Dictionary of Lacunar Units in Uzbek Dialects). Tashkent: Bookmany Print.
- Hozirgi o'zbek adabiy tili. I tom: *Fonetika. Leksikologiya. Morfologiya* (Contemporary Uzbek Literary Language. Vol. 1: Phonetics, Lexicology, Morphology). (1966). Tashkent: Fan.
- Ishaev, A. (1990). *O'zbek dialektal leksikografiyasi* (Uzbek Dialectal Lexicography). Tashkent: Fan.
- Jomonov, R. (1991). *O'zbek tilining izohli lug'ati uchun dialektizmlardan so'z tanlash printsiplari va ularning berilishi* (Nomzodlik dissertatsiyasi) (Principles for Selecting Dialectisms for the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language (Candidate's thesis)). Tashkent.
- Jo'rayev, B. (1963). *O'zbek adabiy tili va o'zbek dialektlari* (Uzbek Literary Language and Uzbek Dialects). Qizil O'zbekiston, Pravda Vostoka va O'zbekistoni surkh.
- Jo'rayev, X. (1981). *O'zbek tili turk-kaltatoy shevasining fonetik va leksik xususiyatlari* (Phonetic and Lexical Features of the Turk-Kaltatoy Dialect of the Uzbek Language). Tashkent: Fan.
- Mahmudov, N. (2012). *Tilimizning tilla sandig'i* (The Golden Chest of Our Language). G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Mahmudov, N. (2017). *Til tilsimi tadqiqi* (Research on the Secret of Language). Tashkent: Mumtoz So'z.
- Muhammadjonov, Q. (1981). *Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari* (Uzbek Dialects in Southern Kazakhstan). Tashkent.
- Muradova, N. (2002). *O'zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi* (Comparative Study of the Vocabulary of Uzbek Literary Language and Dialects). Tashkent: Fan.
- Musaeva, F. (2018). *O'zbek tili va adabiyoti*, (4), 105.
- Musaeva, F. (2019). *O'zbek tili va adabiyoti*, (4), 113.
- Musaeva, F. (2020). *O'zbek tili va adabiyoti*, (3), 97.
- Musaeva, F. (2019). *O'zbek shevalarining lingvomadaniy tadqiqi* (Linguocultural Study of Uzbek Dialects). Tashkent: Fan.
- Navoiy, A. (2012). *Muhokamat ul-lug'atayn* (The Debate of Two Languages) (To'la asarlar to'plami, 10-jild). Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
- Norbayeva, Sh. (2024). *Xorazm shevalari leksikasining onomasiologik tadqiqi* (DSc dissertatsiyasi) (Onomasiological Study of the Lexicon of Khorezm Dialects (Doctor's thesis)). Tashkent.
- Po'latova, S. (2021). *So'z san'ati*, 1(IV), 6–10.
- Reshetov, V. V. (1951). *Kuramin dialects of Tashkent region (phonetic, morphological system)* (Kurama Dialects of the Tashkent Region) (Extended abstract of Doctor's thesis). Tashkent.
- Shoabdurahmonov, Sh. (1962). *O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari* (Uzbek Literary Language and Folk Dialects). Tashkent: Academy of Sciences of Uzbekistan.
- Usmonova, Sh. (2011). *Oltoy tillaridagi mushtarak maishiy leksika tadqiqi* (DSc dissertatsiyasi) (Common Domestic Lexicon in Altai Languages (Doctor's thesis)), Tashkent.
- O'zbek xalq shevalari lug'ati* (Dictionary of Uzbek Folk Dialects) (Sh. Shoabdurahmonov, Ed.). (1971). Tashkent: Fan.

O'zbek tilining izohli lug'atini tuzish uchun qo'llanma (Guide to Compiling an Explanatory Dictionary of the Uzbek Language). (1964). Tashkent: Fan.